

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Son 9 Jild 4

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 9 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

### **Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA PIRENEY YARIM OROLIDAGI KORTESLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI .....	10-14
<i>Azizbek Xolliyev</i> XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYA TOG'-KON SANOATIDA BRITANIYA SARMOYASINING TUTGAN O'RNI .....	15-20
<i>Mahkamov Abdiqayum Mahkamovich</i> SUDYALAR OLIY KENGASHINING SUDYALAR KORPUSINI SHAKLLANTIRISHDA TUTGAN O'RNI (TARIXIY TAHLIL) .....	21-25
<i>Eshimov Shaxridin Xujayorovich</i> SUD – HUQUQ TIZIMIDAGI TARG'IBOTCHILIK FAOLIYATI VA MA'NAVIY – MA'RIFIY ISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) .....	26-31
<i>Намазова Умида Нормурадовна</i> ИЛК ЎРТА АСРЛАР СУҒДДА НИКОҲ: ШАКЛЛАНИШИ, ТАРИХИЙ ИЛДИЗЛАРИ ВА ХУСУСИЯТЛАРИ .....	32-41
<i>Самадов Искандар Исмамович</i> ХОРАЗМ ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ (ХХСР)ДА ЕР-СУВ МАСАЛАСИ .....	42-48
<i>Rustamova Madina Musoqulovna</i> SAMARQAND VILOYATI XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN, TA'LIM VA INNOVATSIYALARGA QO'SHGAN HISSASI .....	49-56
<i>Jiyanbekova Sharofat Abdikaharovna</i> SOVET DAVRIDA KITOB TAQIQLARIGA NISBATAN O'ZIGA XOS SENZURA AMALIYOTLARI... ..	57-64
<i>Tursunov Javlonbek Akrom o'g'li</i> MUQADDAS QADAMJOLAR. SAMARQAND SHAHRINING TARIXIY TOPONOMIYASINING MUHIM TARKIBIY QISMI .....	65-68

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Tolipova Baxtigul</i> MAMLUKAT OZIQ-OVQAT SANOATIGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARNING EKONOMETRIK TAHLILI .....	69-77
<i>Mamanazarov Abdusamat Abdusaitovich</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PUL-KREDIT SIYOSATI KO'RSATKICHLARI TAHLILI ....	78-83
<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич, Хасанова Руфина Раисовна</i> ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ .....	84-96
<i>Meliyeva Nargiza Eshboyevna</i> INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA RIVOJLANGAN DAVLATLARING TAJRIBASI ....	97-104

<i>Исраилов Рустам Ибрагимович</i> КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ .....	105-109
<i>Jumaniyazov Inomjon To'raevich</i> APPLICATION OF ESG PRINCIPLES IN THE ACTIVITIES OF SOVEREIGN INVESTMENT FUNDS .....	110-120
<i>Amonov Navro'zxon Saloxiddin o'g'li</i> MINTAQAVIY MEHNAT BOZORIDAGI ISHCHI KUCHIGA TALAB VA TAKLIFNI ISTIQBOLLASHTIRISH YO'LLARI .....	121-129
<i>Mirxamidova Zahinabonu Mirxamid qizi</i> ROBOTLASHTIRISH DAVRIDA MEHNAT BOZORINING O'ZGARISHI: TO'RTINCHI SANOAT INQILOBI MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI.....	130-138
<i>Kalbayev Muratbay Aytbaevich</i> AYLANMA MABLAG'LARNI TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI .....	139-144
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Ernazarova Yorqinoy Ollaberganovna</i> RIVOJLANGAN DAVLATLARDA KADRLAR XIZMATINI TASHKIL ETISH: ODOB-AXLOQ QOIDALARI VA KASBIY MADANIYAT TALABLARIGA RIOYA ETILISHINI TA'MINLASH MEKANIZMLARI .....	145-155
<i>Ahrorova Shahlo O'rinboyevna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY QADRIYATLARNING TAKOMILLASHUVI JARAYONI .....	156-161
<i>Рахманов Баҳодир</i> АЛИШЕР НАВОЙЙ КОМИЛ ИНСОН КОНСЕПСИЯСИДА СИНЕРГЕТИК ҲОЯЛАР ИНЪИКОСИ .....	162-170
<i>Нуралиева Насиба Ахмадуловна</i> ЖАДИД МУТАФАККИРЛАРИ ИЖОДИДА ТАРБИЯГА ОИД ҚАРАШЛАРНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ .....	171-176
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Fayzulloev Otabek Muhammadovich</i> KATTALAR FOLKLORINING TARKIBIY QISMI – BOLALAR FOLKLORI HAQIDA.....	177-184
<i>Тоқимбетова Гулбахор Абатбаевна</i> ЎЗБЕК-ҚОРАҚАЛПОҚ АДАБИЁТШУНОСЛИГИДА ИРФОНИЙ ОБРАЗЛАР .....	185-190
<i>Yusupova Sadokat Alijon qizi</i> “BOBURNOMA”NING YAPONIYADA O'RGANILISHI .....	191-197
<i>Xudoyberdiyeva Gulmira Allaberdi qizi</i> JAHON TILSHUNOSLIGIDA POLISEMIYA HODISASIGA LINGVISTIK YONDASHUV (RUS VA INGLIZ TILSHUNOSLIGI MISOLIDA) .....	198-201
<i>Tangriyev Valisher Azamovich</i> SOMATIK IFODALAR ORQALI BERILGAN PARALINGVISTIK VOSITALARNING QIYOSIY TADQIQI: “ANOR” HIKOYASI MISOLIDA .....	202-206

<i>Abulova Zilola Azimovna</i> INGLIZ AFORIZMLARINING TARKIBIDA BIR JUMLA HAMDA QO'SHMA GAPLAR BILAN IFODALANGAN AFORIZMLAR XUSUSIYATLARI .....	207-201
<i>Qurbonova Dilnoza Olimovna</i> TYPES AND FUNCTIONS OF ADVERTISEMENT IN ENGLISH AND UZBEK.....	210-216
<i>Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi</i> ASQAR MAHKAM IJODIDA BUVI OBRAZINING O'ZIGA XOSLIGI .....	217-221
<i>Babajanova Aziza Rustamovna</i> ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA BAHOR MAVZUSINING BADIY TALQINI .....	222-227
<i>Khursanova Laylo Bakhtiyarovna</i> REPRESENTATION OF THE CONCEPT OF "PATIENCE" IN SPECIAL ENGLISH DICTIONARIES .....	228-232
<i>Diyorova Mohlaroyim Xamza qizi</i> O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SIFAT SO'Z TURKUMI TADQIQI .....	233-238
<i>Samadova Visola Baxtiyor qizi</i> INGLIZ, O'ZBEK VA RUS TILLARIDA ANTONIM KOMPONENTLI FE'L FRAZEOLGIK BIRLIKLARLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI .....	239-242
<b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Tўlaganova Gulchexraзахитовна, Гофурова Дилафруз Мурод қизи</i> AЁЛЛАР ТОМОНИДАН СОДИР ЭТИЛГАН ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИ РЕЖАЛАШТИРИШ, ЮЗАГА КЕЛАДИГАН ТЕРГОВ ВАЗИЯТЛАРИ ВА ВЕРСИЯЛАРНИ ИЛГАРИ СУРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ .....	243-252
<i>Tosheva Maftuna Anvar qizi</i> INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING TRANSPLANTATSIYASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLAR .....	253-262
<i>Ikramov Sherzod Raximdjanoich</i> VOYAGA YETMAGAN SHAXSLARNI MODDIY TA'MINLASHDAN BO'YIN TOVLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	263-266
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Tohirova Mohigul Umir qizi</i> KO'RISHDA NUQSONI BOR SHAXSLARNING IJTIMOY UMIDSIZLIK DARAJASINI PSIXOLOGIK O'RGANISH. (L.I.VASSERMANNING "IJTIMOY FRUSTRATSIYA (UMIDSIZLIK) DARAJASINI DIAGNOSTIKA QILISH METODOLOGIYASI" ASOSIDA) .....	267-274
<i>Nasriddinov Dadaxon Komiljonovich</i> OLY HARBIY TA'LIMDA FIZIKA O'QITISH SAMARADORLIGINI MOBIL ILOVALAR VA ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN OLIB BORILGAN PEDAGOGIK TAJRIBASINOV ISHLARI VA ULARNING NATIJALARI .....	275-281
<i>Xojaniyazova Inkar Jumanazarovna</i> BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA DIDAKTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH MASALALARI .....	282-292
<i>Ashurova Marhabo Sayfulloyevna</i> BUXORO JADIDLARI VA YANGI USUL MAKTABLARIDA O'QITISH IMKONIYATLARI .....	293-301



<i>Алимова Нигора Исраиловна</i> ОСОБЕННОСТИ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА В ОБРАЗОВАНИИ И ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ, НАХОДЯЩИХСЯ НА ДЛИТЕЛЬНОМ ЛЕЧЕНИИ .....	302-308
<i>Матажонова Gulnoza Karimovna</i> IJTIMOIY FANLARNI TEXNIKA YO'NALISHI TALABALARIGA O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI .....	309-313
<i>Axmadjanova Madina Maxmudjon qizi</i> GRAMMATIK MINIMUM VA UNI O'QITISH METODLARI .....	314-319
<i>Norboyev Zafar Abdumuminovich</i> OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA CEFR ME'ZONLARI ASOSIDA YANGI AVLOD DARSLIKLARINI YARATISH TEXNOLOGIYALARI .....	320-323
<i>Axmedova Zuxraxon Tulyanbayevna</i> QO'L TO'PI O'YININING JISMONIY JIHATDAN O'QUVCHILARNING O'QISHNI TUSHUNISHLARIGA TA'SIRI .....	324-329
<i>Юсупова Заррина Курбоновна</i> УНИКАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ И ВЫЗОВЫ В РАЗВИТИИ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ .....	330-334
<i>Ravshanova Xafiza Komilovna</i> МАКТАБГАЧА ТА'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI .....	335-340
<i>Nurbayeva Xolniso Uralovna</i> GENDER STREOTIPLAR GENDER MADANIYATNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA .....	341-345
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TIZIMLI FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH MUHIM PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA .....	346-351
<i>Mustayeva Guliston Bo'riboyevna</i> TIBBIY TA'LIMDA AKS ETTIRISH AMALIYOTINING AHAMIYATI: UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA KO'MAKLASHISH .....	348-356
<i>Ahmedbekova Maxpuzaxon</i> TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK VA INNOVATSION JIHATLARI .....	357-362
<i>Utkirov Abbas Meyliyevich</i> ARTIFICIAL INTELLIGENCE IMPACT ON HIGHER EDUCATION QUALITY AND EFFICIENCY .....	363-388
<i>Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi</i> BOSHLANGICH SINIF O'QUVCHILARIDA MATEMATIKA FANI ORQALI TANQIDIY-TAHLILIIY HAMDA MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	389-393
<i>Maxliyo Qalandarova</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCILARNING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI VA USULLARI.....	394-399

**Received:** 30 August 2024  
**Accepted:** 5 September 2024  
**Published:** 15 September 2024

*Article / Original Paper*

## **THE ROLE OF THE SUPREME COUNCIL OF JUDGES IN THE FORMATION OF THE CORPS OF JUDGES (HISTORICAL ANALYSIS)**

**Mahkamov Abdiqayum Mahkamovich,**  
Free researcher, Karshi State University  
Email: [abduqayimmahkamov@gmail.com](mailto:abduqayimmahkamov@gmail.com)

**Abstract.** This article is devoted to analyzing the role of the Supreme Council of judges in the process of reforming the judicial system in the Republic of Uzbekistan. The article covers the main tasks of the council in the formation of the Corps of judges, their powers and the measures implemented. Also, the importance of the council in the selection of candidates for judicial positions, ensuring the independence of judges and improving their qualifications is highlighted. During the study, proposals were also made to comply with the principles of openness and justice in the formation of the Corps of judges, to improve the activities of the council in this regard. This analysis is aimed at contributing to the further improvement of the judicial system.

**Keywords:** judicial Corps of the Supreme Council of judges, qualification, reforms, training of personnel, judicial bodies.

## **SUDYALAR OLIY KENGASHINING SUDYALAR KORPUSINI SHAKLLANTIRISHDA TUTGAN O'RNI (TARIXIY TAHLIL)**

**Mahkamov Abdiqayum Mahkamovich,**  
Qarshi davlat universiteti erkin izlanuvchisi, Qarshi.

**Annotatsiya.** Mazkur maqola O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini isloh qilish jarayonida Sudyalar oliy kengashining rolini tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada kengashning sudyalar korpusini shakllantirishdagi asosiy vazifalari, vakolatlari va amalga oshirilgan chora-tadbirlar yoritilgan. Shuningdek, sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlash, sudyalarning mustaqilligini ta'minlash va ularning malakasini oshirishda kengashning ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Tadqiqot davomida sudyalar korpusini shakllantirishda ochiqlik va adolat prinsiplariga rioya etilishi, kengashning bu boradagi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar ham berilgan. Mazkur tahlil sud-huquq tizimining yanada takomillashishiga hissa qo'shishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Sudyalar oliy kengashining sudyalar korpusi, malaka oshirish, islohotlar, kadrlar tayyorlash, sud organlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I9Y2024N03>

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi sud tizimida 2017-yildan boshlab tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Ushbu davrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan sud-huquq tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan bir qator meyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, sud tizimidagi ustuvor vazifalarni belgilab olishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonning qabul qilinishi muhim rol o'ynadi[1]. Ushbu hujjat tom ma'noda Yangi O'zbekistonni bunyod etishning huquqiy

poydevori ekanini amalda namoyon etdi. Harakatlar strategiyasidagi ikkinchi ustuvor vazifa qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini isloh qilishga bag'ishlangan edi.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.** Harakatlar strategiyasidagi ikkinchi ustuvor vazifani amalga oshirish maqsadida 2017-yil 21-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi[2]. Farmonda sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlash va tayinlash tartibini yanada takomillashtirish zarurligi, amaldagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi aniq huquqiy maqomga ega emasligi, o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshirishi va cheklangan vakolatlarga egaligi ta'kidlab o'tilgan edi. Shu bois, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudlar faoliyati samaradorligi va nufuzini oshirish, sudlar tuzilmasini hamda sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlash va tayinlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Sudyalar oliy kengashi ta'sis etilishi lozimligi ko'rsatib o'tilgan edi.

Bundan tashqari, Sudyalar oliy kengashi o'z kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatlarga erishgan sudyalarni davlat mukofotlari bilan taqdirlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga taqdimnomalar kiritgan, sudyalarni intizomiy, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortish masalalari yuzasidan xulosalar bergan hamda qonunda ko'rsatilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirgan.

O'zbekistonda sudyalik lavozimida bo'lishning xalqaro tan olingan muddatlari joriy etilishi munosabati bilan 2017-yil 12-aprelda qonunchilikka kiritilgan o'zgarishlarga muvofiq sudyalik lavozimiga birinchi marta besh yillik muddatga, keyin o'n yillik muddatga, so'ng sudyalik lavozimida bo'lishning muddatsiz davriga tayinlanish yoki saylanish amaliyoti joriy etildi[3]. Buning natijasida, 2017 yilda Sudyalar oliy kengashiga sudyalik lavozimlariga birinchi marta tayinlanadigan nomzodlar zaxirasiga kiritish uchun jami 412 nafar shaxsning arizasi kelib tushgan bo'lsa, shundan 241 nafari zaxiraga olingan, 110 nafari zaxiraga olinishi nomunosib deb topilgan, 171 tasiga esa zaxiraga olinishga rad javobi berilgan. 2018 yilda esa, jami 734 ta shaxsdan ariza kelib tushgan bo'lsa, shundan 445 nafari zaxiraga olingan, 128 nafari nomunosib topilgan, 289 nafariga zaxiraga olinish yuzasidan rad javobi berilgan[4]. Ushbu jarayonda Sudyalar oliy kengashi tomonidan har bir shaxsning taqdim etgan hujjatlari sinchiklab o'rganilib, shundan keyin kollegial asosda qaror qabul qilingan.

2018-yil 25-dekabr holatiga ko'ra ilk bor sudyalik lavozimi zaxirasida turgan nomzodlar 795 tani tashkil qilgan bo'lsa, shundan birinchi besh yillik muddatga munosib deb topilganlar soni 190 nafarni tashkil etgan edi. 2019 yilda respublika bo'yicha jami faoliyat yuritgan sudyalarning 564 nafari, ya'ni yarmidan ko'pi birinchi marta sudyalik lavozimiga tayinlanganlar tashkil etar edi. Kelgusida 10 yil va muddatsizga tayinlanadigan yoki saylanadigan sudyalar sonini ko'paytirib borishga e'tibor kuchaytirildi.

2020-yilda Sudyalar oliy kengashi majlisida sudyalik lavozimiga tayinlash masalasida muhokama qilingan 902 nafar nomzodning 662 nafari yoki 73,4 foizi sudyalik lavozimiga munosib deb topilgan, 199 nafari yoki 22,1 foizi sudyalik lavozimiga nomunosib deb topilgan, 41 nafari yoki 4,5 foizini qayta tayinlash rad etilgan. Bundan tashqari, 1 nafar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining birinchi o'rinbosari lavozimiga, 13 nafar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi lavozimiga, 14 nafar viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining raislari va rais o'rinbosarlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining raisi lavozimlariga tavsiya etiladigan nomzodlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga

taqdimnomalar kiritilgan. Shuningdek, 2020 yil davomida 22 nafar sudyalik lavozimlariga tavsiya etiladigan nomzodlar bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga taqdimnomalar kiritilgan[5].

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek 2020 yilda Sudyalar oliy kengashi tomonidan munosib deb topilgan 662 nafar nomzod turli muddatlarga sudya etib tayinlangan. Aniq raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, besh yil muddatga sudyalik lavozimlariga 66 nafar nomzod munosib deb topilgan bo'lib, ularning 22 nafari jinoyat ishlari bo'yicha sudga, 28 nafari fuqarolik ishlari bo'yicha sudga, 10 nafari iqtisodiy sudga, 6 nafari ma'muriy sud sudyaligiga tayinlangan[6].

**Tahlil va natijalar.** Sudyalik lavozimida bo'lishning navbatdagi o'n yillik muddatiga 202 nafar nomzod munosib deb topilgan. Jumladan, ularning 11 nafari Oliy sudning sudyasi, 77 nafari jinoyat ishlari bo'yicha, 47 nafari fuqarolik ishlari bo'yicha, 32 nafar iqtisodiy, 34 nafari ma'muriy sudning sudyasi va 1 nafari harbiy sudning sudyasi lavozimiga tayinlash uchun ko'rsatilgan[7].

Sudyalik lavozimida bo'lishning muddatsiz davriga 10 nafar nomzod munosib deb topilgan. Xususan 5 nafari jinoyat ishlari bo'yicha, 1 nafari fuqarolik ishlari bo'yicha, 2 nafari iqtisodiy sudlar bo'yicha va 2 nafari Oliy sudning sudyasi lavozimiga tayinlash uchun ko'rsatilgan. Bundan tashqari, 2020 yilda Sudyalar oliy kengashi tomonidan 384 nafar sudya vakolat muddati davriga boshqa sudyalik lavozimlariga qayta tayinlangan bo'lib, shundan 108 nafari jinoyat, 110 nafari fuqarolik, 89 nafari ma'muriy, 76 nafari iqtisodiy va 1 nafari harbiy sudlarning sudyasi lavozimlariga qayta tayinlangan[8]. 2020 yilda O'zbekiston Respublikasi sud tizimida faoliyat yuritgan jami sudyalarning 619 nafari birinchi besh yillik muddatga, 559 nafari 10 yillik muddatga hamda 57 nafari muddatsiz davrda faoliyat yuritgan. Ularning 13 nafari yuridik fanlar nomzodi ilmiy darajasiga ega sudyalar edi. Quyi sudlarda faoliyat yuritayotgan 23 nafar, Oliy sudda faoliyat yuritayotgan 8 nafar sudyalar Sudyalar oliy kengashi tavsiyasi asosida davlat mukofotlari bilan taqdirlangan[9].

O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonuniga ko'ra sudyalik korpusini hayotiy tajribaga va yuqori salohiyatga ega kadrlar bilan shakllantirish maqsadida yosh senzi 35 yoshga o'zgartirildi. Benuqson obro'-e'tibor, halollik, layoqatlilik, yetarli hayotiy tajribaga egalik, odil sudlovni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan kasalliklarning yoki jismoniy nuqsonlarning mavjud emasligi birinchi marta tayinlanadigan sudyalarni tanlashning asosiy mezonlari etib belgilandi.

Kengash yangi vakolat muddatiga tayinlanadigan sudyalik lavozimiga nomzodni ko'rib chiqishda ushbu nomzod tomonidan qabul qilingan sud qarorlarining barqarorligini, odil sudlovni amalga oshirish va qonun hujjatlari normalarini qo'llash borasida yetarli tajribaga ega ekanligini, shuningdek, jamoatchilikning uning kasbiy faoliyati haqidagi fikrini inobatga oladi.

2021 yil davomida Sudyalar oliy kengashi tomonidan 45 marotaba majlis o'tkazilgan bo'lib, unda jami 691 ta masala muhokama qilingan. Shundan, 653 ta sudyalik lavozimiga tayinlash, 38 ta sudyalik vakolatini muddatidan ilgari tugatish masalasi muhokama qilingan[10].

Keyingi yillarda ham o'rnatilgan qonuniy tartib-qoidalarga amal qilmagan, o'z kasbiga mas'uliyatsizlik qilgan hamda Sudyalar odob kodeksi talablarini buzgan sudyalarga nisbatan Sudyalar oliy kengashi tomonidan ta'sir choralari qo'llanib borilgan. Raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, 2020 yilda Sudyalar oliy kengashi tomonidan 61 ta, 2021 yilda 220 ta, 2022

yilda 276 ta ish kengash muhokamasiga kiritilgan. Birgina 2022 yilni tahlil etadigan bo'lsak 276 ta qo'zg'atilgan intizomiy ish natijasida 22 nafar sudyaning vakolati muddatidan ilgari tugatilgan, 103 nafar sudyaga nisbatan hayfsan, 19 nafar sudyaga jarima, 132 nafar sudyaga ogohlantirish chorasi qo'llanilgan[11].

2022 yil davomida sudyalar daxlsizligi buzilishi va ularning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga aralashish bo'yicha 2 ta holat qayd etilib, har bir holat bo'yicha xizmat tekshiruvini o'tkazilib, Bosh Prokuraturaga kiritilgan taqdimnomalar asosida 1 ta jinoyat ishi qo'zg'atilgan. Tuman hokimliklarining sudlarga turli vazifalar yuklash haqidagi 14 ta qarorlari bekor qilingan[12].

**Muhokama.** O'zbekiston Respublikasi sud tizimida fidokorona mehnatlari va yutuq hamda muvaffaqiyatlari uchun bir qator sudyalar turli darajadagi davlat mukofotlarga sazovor bo'lishgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 dekabrda "Sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash hamda sud tizimida korrupsiyaning oldini olish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida sudyalarning odil sudlovni amalga oshirishdagi faoliyatini rag'batlantirish maqsadida «Ibratli sudya» mukofoti hamda odil sudlovni amalga oshirishda uzoq yillar samarali mehnat qilib pensiyaga chiqqan sudyalar uchun «Sud faxriysi» ko'krak nishonini joriy etilishi ta'kidlab o'tilgan edi[13].

Sud tizimi tarixida ilk bor 2022 yil 4 fevralda Sudyalar oliy kengashi qarori ko'ra, odil sudlovga erishishdagi ko'rsatkichlari barobarida o'zining chuqur bilimi hamda ma'naviy fazilatlari bilan kasbdoshlariga namuna bo'layotgan 16 nafar sudya mazkur mukofotga loyiq, deb topildi[14]. E'tiborlisi, mukofotga sazovor bo'lganlar orasida Oliy sud dan to tuman sudi sudyalari gacha bor. Bu nomzodlarni saralashda xolislik va oichqlik ustuvor ahamiyat kasb etganini yaqqol ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining 2021 yil 12 iyuldagi № SOKQ-1582-III-sonli qarori bilan «Sud faxriysi» ko'krak nishoni to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Nizomga ko'ra «Sud faxriysi» ko'krak nishoni bilan O'zbekiston sudyalari hamjamiyatida yuksak obro'- e'tibor qozongan, sudyalik burchini benuqson, samarali va halol amalga oshirgan, jamiyatda odil sudlovga bo'lgan ishonchini mustahkamlash va yosh sudya kadrlarni yetishtirishga o'zining munosib hissasini qo'shgan, kamida o'n yil sudya sifatida faoliyat ko'rsatib, nafaqa yoshiga yetsa-da, sudya sifatida faoliyat yuritayotgan sudyalar hamda nafaqadagi sudyalar taqdirlanadi. Sudyalik lavozimida ishlayotgan nomzodlarni tanlab olish Sudyalar oliy kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

Nafaqadagi sudyalarni mukofotlashga nomzod sifatida taqdim qilish O'zbekiston Sudyalari assotsiatsiyasi Markaziy kengashi va Faxriylar jamoatchilik boshqaruvi kengashining ko'shma majlisi qarori bilan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudidan nomzod ushbu sud tomonidan taqdim qilinadi. 2022 yilda O'zbekiston Respublikasining istiqlol bayrami va bosh qomusi qabul qilingan sana arafasida 107 nafar faxriyga "Sud faxriysi" ko'krak nishoni va guvohnoma tantanali ravishda topshirildi[15].

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, o'tgan qisqa davr ichida sudyalikka nomzodlarni tanlash va lavozimga tayinlash tizimini tubdan takomillashtirish, yuqori malakali sudyalar korpusini shakllantirish maqsadida sudyalar hamjamiyatining yangi organi — O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tashkil qilinishi bilan sudyalarni tanlash va joy-joyiga qo'yishning yanada adolatli tizimi shakllantirildi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sudyalarni tayinlash bilan bog'liq o'z vakolatining bir qismini Sudyalar oliy kengashi vakolatiga

o'tkazib berganligi bu yangi tuzilmaga bo'lgan ishonch va mas'uliyatni yanada oshirdi. Albatta, bunday yondashuv odil sudlov organlariga nisbatan hurmat ko'rsatilishidan va sudyalarning umume'tirof etilgan normalar darajasida huquqiy va ijtimoiy himoyaga olinishidan dalolat beradi.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони. Электрон манба: <https://lex.uz/uz/docs/3107036>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 21 февралдаги “Ўзбекистон Республикаси суд тизими тузилмасини тубдан такомиллаштириш ва фаолияти самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони // Халқ сўзи, 2017 йил 22 февраль.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Судлар тўғрисида” ги қонуни, Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик процессуал ва Хўжалик процессуал кодексларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида”ги қонуни // Халқ сўзи, 2017 йил 13 апрель.
4. Ўтган йилларда неча нафар судья ишдан бўшатилади? // Халқ сўзи, 2019 йил 9 январь.
5. Судьялар олий кенгашининг 2020 йилдаги фаолияти. Ахборотнома. –Тошкент, 2021. –Б.7.
6. Судьялар олий кенгашининг 2020 йилдаги фаолияти. Ахборотнома. –Тошкент, 2021. –Б.8.
7. Судьялар олий кенгашининг 2020 йилдаги фаолияти. Ахборотнома. –Тошкент, 2021. –Б.8.
8. Судьялар олий кенгашининг 2020 йилдаги фаолияти. Ахборотнома. –Тошкент, 2021. –Б.9.
9. Судьялар олий кенгашининг 2020 йилдаги фаолияти. Ахборотнома. –Тошкент, 2021. –Б.11.
10. Судьялар олий кенгашининг 2021 йилдаги фаолияти. Ахборотнома. –Тошкент, 2022. –Б.6.
11. Судьялар олий кенгашининг 2022 йилдаги фаолияти. Ахборотнома. –Тошкент, 2023. –Б.13.
12. Судьялар олий кенгашининг 2022 йилдаги фаолияти. Ахборотнома. –Тошкент, 2023. –Б.13.
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 7 декабрдаги “Судьяларнинг чинакам мустақиллигини таъминлаш ҳамда суд тизимида коррупциянинг олдини олиш самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони. Электрон манба. <https://lex.uz/docs/5146554>
14. “Ибратли судья” мукофоти илк эгаларига топширилди. Электрон манба: <https://sudyalaroliykengashi.uz/uz/news/343>
15. Судьялар олий кенгашининг 2021 йилдаги фаолияти. Ахборотнома. –Тошкент, 2022. –Б.30.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 9 (4) – 2024*

### АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

#### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).